O'zbekiston sharoitida mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, kichik biznes ish o'rinlari yaratish, xizmatlar bozorini kengaytirish, aholi daromadlarini diversifikatsiya qilish va hududiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, aynan ushbu sektorda mehnatni tashkil etishning moslashuvchan shakllari — masofaviy ish, to'liqsiz ish vaqti, uy mehnati, frilans, o'zini o'zi band qilish hamda platformaviy faoliyat —



jadal sur'atlarda rivojlanmoqda [3; 4; 12; 13].

Shu sababli nostandart bandlikni kichik biznes samaradorligini oshiruvchi zamonaviy institut sifatida o'rganish iqtisodiy hamda amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi — O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda nostandart bandlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishning amaliy mexanizmlarini asoslash, ularning hozirgi holatini rasmiy statistika hamda huquqiy manbalar asosida baholash, shuningdek, takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nostandart bandlik nazariyasidagi zamonaviy yondashuvlar, asosan, Xalqaro mehnat tashkiloti tahlillariga tayanadi. XMTning yirik hisobotida nostandart bandlikning to'rtta asosiy toifasi — vaqtinchalik bandlik, to'liqsiz va chaqiruv asosidagi ish, ko'p tomonlama mehnat munosabatlari hamda bog'liq o'zini o'zi band qilish — ajratib ko'rsatilgan [1]. Mazkur yondashuv mehnat shakllarining xilma-xilligi iqtisodiy moslashuvchanlikni oshirishini e'tirof etgan holda, minimal kafolatlar, teng mehnat huquqlari va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ham ta'kidlaydi [1; 2].

OECD tadqiqotlarida O'zbekistonda raqamli ko'nikmalar hamda raqamli transformatsiya kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi. Tahlillarda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi ortib borayotganiga qaramasdan, ko'plab firmalarda raqamli va komplementar ko'nikmalarning yetishmasligi, xabardorlik darajasining pastligi hamda institutsional qo'llab-quvvatlashning cheklanganligi saqlanib qolayotgani qayd etiladi [3].

Jahon bankining mamlakat iqtisodiy memorandumida esa xususiy sektor yetakchiligidagi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun regulyator to'siqlarni kamaytirish, bozor nomutanosibliklarini bartaraf etish, infratuzilma hamda texnologik cheklovlarni qisqartirish muhim omil sifatida asoslab berilgan [4].

UNDP hamda CERR tomonidan tayyorlangan 2025-yilgi hisobotda O'zbekistonda norasmiy mehnat va norasmiy bandlik hanz sezilarli ulushga ega ekani, ayniqsa xizmatlar, savdo va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq faoliyat turlarida ushbu holat yuqori darajada kuzatilishi qayd etiladi [5]. Shu bois o'zini o'zi band qilish va platformaviy faoliyatni faqat ro'yxatdan o'tkazish bilan cheklanmasdan, uni ijtimoiy himoya, soliq tarixini yuritish hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi [5].

O'zbekiston olimlari hamda mahalliy tahlillarda kichik biznesning mehnat bozoridagi o'rni, o'zini o'zi band qilish va mikrotadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarda nostandart bandlikni kichik biznes samaradorligi, formallashtirish jarayonlari va ijtimoiy himoya mezonlari bilan uzviy bog'liq holda baholovchi kompleks yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nostandart bandlikka oid xalqaro va milliy yondashuvlarni solishtirish maqsadida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Kichik biznes hamda mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni baholash uchun statistik-dinamik tahlil qo'llanildi. Mehnat qonunchiligi, o'zini o'zi band qilish va uy mehnatiga oid huquqiy bazani o'rganishda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Nostandart bandlikdan samarali foydalanish mexanizmlarini o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida ifodalashda esa tizimli yondashuv asos qilib olindi.

Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq statistik ma'lumotlari, rasmiy press-reizlari, Lex.uz qonunchilik ma'lumotlari, shuningdek Xalqaro mehnat tashkiloti, OECD, Jahon banki hamda UNDPning so'nggi tahliliy materiallari olindi [1–15].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda mehnat bozori ko'rsatkichlari kichik biznes hamda nostandart bandlik masalalarini alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. 2024-yilda iqtisodiy faol aholi soni 15 097,9 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bandlik darajasi 68,3 foiz, ishsizlik darajasi esa 5,5 foizni tashkil qilgan [15].

Shu davrda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 74,5 foizga teng bo'lib, ushbu sektorda bandlar soni 10 628,7 ming kishiga yetgan [10; 11]. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznes mehnat bozorida asosiy ish beruvchi funksiyasini bajarayotganini anglatadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faol kichik biznes subyektlari soni 1 201,6 mingtaga yetgan [12]. 2025-yil yanvar–iyun oylarida 40,3 mingta yangi kichik korxon va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi savdo, qishloq, o'rmon va baliqchilik, boshqa xizmatlar, sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari sohalariga to'g'ri kelgan [12].


2025-yil yanvar–iyun oylarida kichik biznesning YaIMdagi ulushi 49,6 foizni tashkil etgan [12], 2025-yil yanvar–dekabr oylarida esa bozor xizmatlarida kichik biznes ulushi 56,7 foizga yetgan [14]. Mazkur ma'lumotlar kichik biznesda mehnatni talabga tez moslashtirish ehtiyoji yuqori ekanini, demak, nostandart bandlik shakllari uning iqtisodiy arxitekturasi tabiiy elementiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

2025-yildagi aholi umumiy daromadlari tarkibi ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Jami daromadlar tarkibida kichik biznesdan olinayotgan daromad ulushi 58,0 foizni, o'zini o'zi band qilishdan olinayotgan daromad esa 34,0 foizni tashkil etgan [13]. Boshqacha aytganda, nostandart va gibrid mehnat shakllari mehnat bozorining chekka segmenti emas, balki aholi daromadlari tizimining muhim funksional qismiga aylangan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda kichik biznes va nostandart bandlik imkoniyatlarini baholash uchun muhim indikatorlar¹

Ko'rsatkich	Qiymat	Tahliliy ahamiyati
Iqtisodiy faol aholi soni, 2024-yil	15 097,9 ming kishi	Mehnat bozorining umumiy hajmini ifodalaydi
Bandlik darajasi, 2024-yil	68,3 %	Ish bilan ta'minlash fonida baholash imkonini beradi
Ishsizlik darajasi, 2024-yil	5,5 %	Moslashuvchan ish shakllariga ehtiyojni izohlaydi
Kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi, 2024-yil	74,5 %	Kichik biznes mehnat bozorining asosiy segmenti ekanini ko'rsatadi
Kichik biznesda bandlar soni, 2024-yil	10 628,7 ming kishi	Nostandart bandlikni qo'llash salohiyati kengligini anglatadi
Faol kichik biznes subyektlari, 2026-yil 01-yanvar	1 201,6 mingta	Kichik biznes infratuzilmasining ko'lamini aks ettiradi
Yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar, 2025-yil yanvar-iyun	40,3 mingta	Kichik biznesning yangilanish sur'atini ko'rsatadi
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi, 2025-yil yanvar-iyun	49,6 %	Iqtisodiy o'sishdagi o'rnini ko'rsatadi
Kichik biznesning bozor xizmatlaridagi ulushi, 2025-yil yanvar-dekabr	56,7 %	Xizmatlar sohasida moslashuvchan mehnat shakllari ahamiyati yuqoriligini bildiradi
Kichik biznesdan olinayotgan daromad ulushi, 2025-yil	58,0 %	Uy xo'jaliklari daromadidagi tizimli o'rnini ko'rsatadi
O'zini o'zi band qilishdan olinayotgan daromad ulushi, 2025-yil	34,0 %	Gibrid va mustaqil mehnat shakllari ahamiyatini aks ettiradi



1-rasm. O'zbekistonda kichik biznesning bandlikdagi o'ri, 2020–2024-yy².

1 Manba: muallif tomonidan [10]–[15] manbalar asosida tuzilgan.

2 Manba: [10] va [11] ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



O'zbekistonda nostandart bandlikning ayrim shakllari uchun huquqiy baza so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Yangi Mehnat kodeksida masofaviy ish bo'yicha alohida bo'lim ajratilgan bo'lib, 452–456-moddalarda masofaviy mehnatning huquqiy tartibi, doimiy va vaqtinchalik masofaviy ish, aralash rejim hamda tegishli mehnat shartnomasi masalalari nazarda tutilgan [6].

Shuningdek, Kodeksning 193-moddasida moslashuvchan ish vaqti rejimi, 7744–7778-qatorlarda esa to'liqsiz ish vaqtining shartnoma asosida yoki ayrim hollarda majburiy tartibda joriy etilishi hamda mehnatga haq to'lashning proporsional mexanizmi belgilab qo'yilgan [6]. Mazkur holat nostandart bandlik shakllarini mehnat huquqi maydonidan tashqarida emas, balki uning doirasida tartibga solish boshlanganini anglatadi.

O'zini o'zi band qilish bo'yicha muhim institutsional qadam 2020-yildagi PQ-4742-son qaror orqali amalga oshirildi. Ushbu hujjat bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyatlar ro'yxati kengaytirildi, ro'yxatdan o'tishning xabar berish tartibi, QR-kod orqali tasdiqlash hamda ijtimoiy soliqni to'lashning soddalashtirilgan mexanizmi belgilandi [7]. Qarorda internet orqali xizmat ko'rsatuvchi frilanserlar uchun ham alohida huquqiy imkoniyatlar nazarda tutilgan [7].

Kasanachilik mehnatini rivojlantirish bo'yicha 2022- va 2023-yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari ham nostandart bandlikni qonuniy hamda institutsional maydonga olib kirishga xizmat qildi. 2022-yilgi qarorda kasanachilik orqali bandlikni ta'minlashni kengaytirish masalasi davlat siyosatining alohida yo'nalishi sifatida belgilangan [8]. 2023-yilgi qarorda esa kasanachilikni yanada rivojlantirish choralari belgilanib, tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ishlar bajarishga jalb qilish imkoniyatlari kengaytirildi [9].

Mazkur huquqiy o'zgarishlar kichik biznes uchun mehnatni tashkiliy jihatdan moslashuvchan tashkil etishga, ayniqsa ayollar, yoshlar va hududiy mehnat resurslarini faollashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, amaldagi baza hali ham takomillashtirishni talab etadi. Masofaviy xodim, to'liqsiz ish vaqtida ishlovchi xodim, uy mehnatchisi, platformaviy ijrochi va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliq, ijtimoiy sug'urta hamda mehnat huquqiga oid rejimlari o'zaro to'liq muvofiqlashtirilmagan. Natijada, nostandart bandlik ayrim hollarda formal iqtisodiyotga chiqish ko'prigi bo'lishi bilan birga, qo'shimcha tartibga solishni ham talab qilishi mumkin [1; 5].

Tahlil natijalari nostandart bandlikdan samarali foydalanishni ta'minlaydigan beshta ustuvor mexanizmi ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Birinchidan, huquqiy tabaqalashuv (differentsiatsiya) mexanizmi. Nostandart bandlikning turli shakllari uchun yagona emas, balki maqbullashtirilgan huquqiy rejimlar zarur. Masofaviy ish, to'liqsiz ish vaqti, uy mehnati, platformaviy xizmat va o'zini o'zi band qilishni aniq tasniflash mehnat shartnomasi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasidagi chegaralarni aniqlashtiradi [1; 6; 7]. Bu ish beruvchilar uchun huquqiy aniqlik, ishchilar uchun esa kafolatli maqom yaratadi.

Ikkinchidan, raqamli identifikatsiya va elektron shartnoma tuzish mexanizmi. OECD hisobotida ta'kidlanganidek, O'zbekistonda raqamli ko'nikmalar va raqamli transformatsiya darajasi biznes o'sishini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi [3]. Nostandart bandlikni rasmiylashtirish uchun elektron shartnoma, elektron to'lov, QR-kodli ro'yxatdan o'tish, platformaviy hisob-kitob va raqamli mehnat tarixi tizimlarini joriy etish lozim. Bu nafaqat hisobga olishni yaxshilaydi, balki kichik biznesning kredit tarixi va soliq intizomini ham mustahkamlaydi.

Uchinchidan, portativ ijtimoiy himoya mexanizmi. UNDP hisobotida norasmiy mehnatning asosiy muammolaridan biri sifatida ijtimoiy himoya tizimidan tashqarida qolish holati qayd etiladi [5]. Shu bois o'zini o'zi band qilganlar, platformaviy ijrochilar va qisman ish vaqtida ishlovchilar uchun pensiya staji, kasallik, onalik, mehnatga layoqatsizlik hamda qisqa muddatli daromad yo'qotish xavflarini qamrab oluvchi portativ sug'urta paketlarini ishlab chiqish zarur. Bunda to'lovlarning bir qismi ish beruvchi, bir qismi ijrochi, yana bir qismi esa davlat tomonidan subsidiyalanishi mumkin.

To'rtinchidan, mikromalaka va qayta tayyorlash mexanizmi. Kichik biznes uchun buxgalteriya outsorsingi, SMM, onlayn savdo, grafik dizayn, IT-qo'llab-quvvatlash, tarjima, kuryerlik va logistika dispetcherligi kabi ko'plab faoliyat turlari aynan nostandart bandlik formatlarida rivojlanmoqda. Shu sababli qisqa muddatli, bozor talabiga mos hamda sertifikatlanuvchi mikromalaka dasturlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq [3].

Beshinchidan, platformaviy moliyaviy rag'bat mexanizmi. Jahon banki tadqiqotida xususiy sektor o'sishi uchun moliyaviy resurslarga kirish va raqobat muhitining muhimligi ta'kidlanadi [4]. Agar nostandart ishlovchilar hamda mikrobiznes subyektlari elektron shartnoma, elektron to'lov va ijtimoiy soliq to'lovlari orqali rasmiy raqamli iz qoldirsa, ushbu tarix asosida mikro kredit, faktoring, aylanma mablag' va sug'urta mahsulotlariga kirishni yengillashtirish mumkin bo'ladi. Bu nostandart bandlikni nafaqat bandlik shakli, balki formal moliyaviy infratuzilmaga kirish kanaliga aylantiradi (2-jadval).

2-jadval

 Nostandart bandlikdan samarali foydalanishni takomillashtirishning ustuvor mexanizmlari³

Mexanizm	Asosiy mazmun	Instrumentlar	Kutilayotgan natija
Huquqiy differentsiatsiya	Nostandart bandlik turlari uchun aniq huquqiy rejimlarni belgilash	Klassifikator, shartnoma shablonlari, huquqiy testlar	Niqoblangan mehnat munosabatlari qisqaradi
Raqamli identifikatsiya	Ishni, to'lovni va ro'yxatdan o'tishni raqamli tizimga ulash	Elektron shartnoma, QR-ro'yxatdan o'tish, elektron to'lov	Formallashtirish va shaffoflik oshadi
Portativ ijtimoiy himoya	Moslashuvchan ishlovchilarni sug'urta paketlari bilan qamrab olish	Pensiya, kasallik, onalik va daromad yo'qotish paketlari	Ijtimoiy xavflar kamayadi
Mikromalaka va qayta tayyorlash	Qisqa muddatli va bozorga mos tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish	Sertifikatli kurslar, onlayn o'qish, hududiy buyurtma	Mehnat mahsuldorligi va raqamli ko'nikmalar o'sadi
Platformaviy moliyaviy rag'bat	Rasmiy raqamli tarix asosida moliyaga kirishni yengillashtirish	Mikrokredit, skoring, faktoring, sug'urta	Kichik biznesning o'sish salohiyati kuchayadi

Nostandart bandlikning kichik biznes uchun iqtisodiy afzalligi shundaki, u talabning mavsumiy yoki siklik o'zgarishlariga tez moslashish imkonini beradi. Masalan, xizmatlar, savdo, logistika, ta'lim, kreativ industriya, IT va konsalting kabi sohalarda ish hajmi doimiy emas. Shu bois barcha funksiyalar uchun to'liq stavkali, doimiy personal saqlash har doim ham samarali bo'lavermaydi. Bunday sharoitda qisman ish vaqti, loyiha asosida ishlash, outsorsing yoki masofaviy ish mahsulot va xizmat tannarxini moslashtirishga yordam beradi [1; 3].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, moslashuvchanlikning o'zi samaradorlikka teng emas. Agar nostandart mehnat munosabatlari shartnoma, hisob-kitob va ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanmasa, ish beruvchi qisqa muddatli foyda ko'rishi mumkin, ammo uzoq muddatda kadrlar aylanuvchanligi, malakaning yo'qolishi, ish sifati pasayishi hamda reputatsion xarajatlar ortishi ehtimoli yuzaga keladi [1; 5].

Birinchiidan, niqoblangan mehnat munosabatlari xavfi mavjud. Ayrim hollarda doimiy mehnat funksiyasiga ega xodim fuqarolik-huquqiy ijrochi yoki "o'zini o'zi band qilgan shaxs" sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. Bu mehnat munosabatlarining huquqiy mazmunini o'zgartirmasdan, faqat tashqi shaklini almashtirish orqali ish beruvchi xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Natijada xodim mehnat ta'tili, ish vaqti kafolatlari, kasallik varaqasi va boshqa ijtimoiy huquqlardan cheklanishi mumkin [1; 6; 7]. Shu sababli mehnat inspeksiyasi va soliq organlari uchun xavfga asoslangan monitoring mezonlarini ishlab chiqish muhimdir.

Ikkinchiidan, raqamli ajralish xavfi mavjud. OECD tahliliga ko'ra, raqamli infratuzilma yaxshilanib borayotgan bo'lsa-da, firmalarning katta qismi raqamli ko'nikmalar va raqamli boshqaruv usullarini yetarli darajada o'zlashtirmagan [3]. Bu esa platformaviy mehnat yoki masofaviy ish imkoniyatlaridan hududlar va tarmoqlar kesimida notekis foydalanishga olib keladi. Shu bois raqamli transformatsiya faqat texnik infratuzilma emas, balki menejment ko'nikmalari, kibernetika, onlayn buxgalteriya hamda elektron hujjat aylanishi bilan birgalikda rivojlantirilishi lozim.

Uchinchiidan, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. O'zini o'zi band qilish tizimi ro'yxatdan o'tish va pensiya hisobi nuqtai nazaridan muhim qadam bo'lsa-da, barcha nostandart ishlovchilarni to'liq ijtimoiy sug'urta bilan qamrab olmaydi [5; 7]. Agar mehnat bozorida moslashuvchan ish shakllari tez o'ssa, ammo ijtimoiy himoya tizimi mos ravishda takomillashmasa, mehnat bozori ikki qatlamli tizimga aylanishi mumkin: bir tomonda kafolatlangan standart ish joylari, ikkinchi tomonda esa yuqori noaniqlikka ega moslashuvchan faoliyatlar. Bu holat o'rta muddatda tengsizlikning ortishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchiidan, mahsuldorlik xavfi ham mavjud. Jahon banki hisobotiga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat mahsuldorligi farqlari va regulyator to'siqlar hali ham o'sish imkoniyatlarini cheklaydi [4]. Agar nostandart bandlik asosan past malakali, past qo'shilgan qiymatli segmentlarda jamlanib qolsa, u kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish o'rniga, kam daromadli va past mahsuldorlikli modelni mustahkamlashi mumkin. Shu sababli nostandart bandlikni yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar, kreativ va raqamli faoliyatlar bilan bog'lash ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, tavakkallarni kamaytirish bo'yicha amaliy yondashuv quyidagilarni qamrab oladi:

- mehnat munosabatlarini aniqlash uchun huquqiy testlar va mezonlarni joriy etish;
- raqamli platformalar uchun minimal shaffoflik va ma'lumot almashish standartlarini belgilash;
- nostandart ishlovchilarga nisbatan qisman majburiy portativ ijtimoiy sug'urta paketlarini bosqichma-bosqich ishga tushirish;
- nostandart faoliyatdan standart biznesga o'tishni yengillashtiruvchi "o'sish yo'laklari"ni yaratish.

Mazkur yondashuv nostandart bandlikni norasmiy mehnatning manbai emas, balki tadbirkorlik ekotizimining tartibga solingan va mahsuldor segmentiga aylantirishga xizmat qiladi.

Empirik ma'lumotlar kichik biznesda nostandart bandlik imkoniyatlari yuqori ekanini ko'rsatadi, biroq ulardan

3 Manba: muallif tomonidan [1], [3]–[9] manbalar asosida tuzilgan.



samarali foydalanish uchun “moslashuvchanlik–formallasuv–ijtimoiy himoya–mahsuldorlik” zanjirini barqarorlashtirish zarur. Agar moslashuvchanlik faqat ish beruvchining xarajatlarini qisqartirish vositasiga aylansa, bunday bandlik qisqa muddatda ish o‘rinlari yaratishi mumkin, ammo o‘rta muddatda daromadlar beqarorligi hamda malakaning qadrsizlanishiga olib kelishi ehtimoli mavjud [1; 5].

Aksincha, raqamli hisobga olish, huquqiy aniqlik va portativ ijtimoiy himoya bilan uyg‘unlashtirilgan nostandart bandlik kichik biznes uchun xarajatlar moslashuvchanligini saqlagan holda, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada taklif etilayotgan yondashuv markazida ikki tomonlama maqsad turadi:

birinchidan, kichik biznes uchun mehnatni tashkil etishning adaptiv modellarini kengaytirish;

ikkinchidan, ushbu modellarni norasmiylik shakli emas, balki rasmiy iqtisodiy faoliyatning zamonaviy formatiga aylantirish.

Bunda samaradorlik mezoni faqat ish o‘rni yaratish bilan cheklanmay, quyidagi kompleks natijalar orqali baholanishi lozim:

- huquqiy aniqlik va shartnomaviy shaffoflikning oshishi;
- xodimning rasmiy daromad tarixi hamda kredit resurslariga kirish imkoniyatining kengayishi;
- ish beruvchi uchun mehnat xarajatlarining mavsumiy va siklik talabga moslashishi;
- raqamli ko‘nikmalar hamda mehnat mahsuldorligining o‘shishi;
- ijtimoiy himoya bilan qamrov darajasining ortishi.

Mazkur mezonlar asosida nostandart bandlikni “muammo” yoki “inqiroz belgisi” sifatida emas, balki zamonaviy kichik biznes iqtisodiyotining zarur institutsional formati sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Biroq bu yondashuv davlatning soliq, mehnat, ijtimoiy sug‘urta hamda raqamli platformalar sohasidagi o‘zaro muvofiqlashtirilgan siyosati mavjud bo‘lgandagina amaliy samara beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, nostandart bandlik O‘zbekistonda kichik biznes rivoji uchun muhim iqtisodiy omilga aylanib bormoqda. Mazkur holat kichik biznesning jami bandlikdagi 74,5 foizlik ulushi hamda ushbu sektorda 10,6 mln nafardan ortiq aholining bandligi bilan tasdiqlanadi [10; 11]. Ikkinchidan, aholi daromadlari tarkibida kichik biznes va o‘zini o‘zi band qilishdan olinayotgan daromad ulushining yuqoriligi nostandart mehnat shakllarining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda [13]. Demak, ushbu sohani tartibga solish masalasi nafaqat mehnat munosabatlari, balki daromad siyosati hamda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uchinchidan, huquqiy baza sezilarli darajada kengaygan bo‘lsa-da, nostandart bandlik shakllari bo‘yicha soliq, mehnat va ijtimoiy himoya rejimlari o‘rtasida to‘liq integratsiya hali yakuniy shakllanmagan [6–9]. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, raqamlashtirish, elektron kontraktlash va platformaviy hisob-kitoblarni joriy etish nostandart bandlikni rasmiylashtirishning eng samarali kanallaridan biri hisoblanadi [3; 7].

Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: nostandart bandlik shakllari bo‘yicha milliy huquqiy klassifikatorni joriy etish, elektron mehnat shartnomasi va platformaviy mehnat reyestrini bosqichma-bosqich ishga tushirish, o‘zini o‘zi band qilganlar hamda platformaviy ijrochilar uchun portativ ijtimoiy himoya paketlarini ishlab chiqish, hududlar va tarmoqlar kesimida qisqa muddatli mikromalaka dasturlarini moliyalashtirish, elektron to‘lov va soliq tarixi asosida mikrokreditlash hamda sug‘urta instrumentlarini yaratish, shuningdek, nostandart bandlik samaradorligini baholash maqsadida formallasuv, daromad barqarorligi, mehnat mahsuldorligi va ijtimoiy qamrov indikatorlarini rasmiy monitoring tizimiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, kichik biznesni rivojlantirishda nostandart bandlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish mexanizmi mehnat xarajatlarini qisqartirish siyosatiga emas, balki moslashuvchanlik, formallasuv, raqamli hisobga olish va ijtimoiy himoyani uyg‘unlashtiruvchi kompleks institutsional yondashuvga asoslanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. International Labour Organization. *Non-standard Employment around the World: Understanding Challenges, Shaping Prospects*. Geneva: ILO, 2016. URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms_534496.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
2. International Labour Organization. *Non-standard Forms of Employment*. URL: <https://www.ilo.org/topics-and-sectors/non-standard-forms-employment> (murojaat sanasi: 09.04.2026).
3. OECD. *Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan*. Paris: OECD Publishing, 2023. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/05/digital-skills-for-private-sector-competitiveness-in-uzbekistan_8f1719a7/6c54f447-en.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
4. World Bank. *Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration*. Washington, DC: World Bank, 2024. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099050625064539607/pdf/P180243->



- [48550e68-358a-4e35-bef7-236138d3d28e.pdf](#) (murojaat sanasi: 09.04.2026).
5. Central Bank of Uzbekistan, CERR, UNDP. *Informal Employment in Uzbekistan*. Tashkent, 2025. URL: https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-10/report_informal_economy_eng.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022-y., № O'RQ-798. URL: <https://lex.uz/docs/6257291> (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 7. PQ-4742-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/4849607> (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 8. PQ-214-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi "Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/5973565> (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 9. PQ-70-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-fevraldagi "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/6389635> (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi*. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_274.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni*. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_425.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Main Indicators of Small Business Entities in the Republic of Uzbekistan*. 25.07.2025. URL: https://stat.uz/img/press-revizlar/kb_eng_p14092.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Aggregate Income of the Population. January–December 2025*. URL: <https://stat.uz/files/617/choraklik-natijalar-2025-yanvar-dekabren/4287/16-TOTAL-POPULATION-INCOME.pdf> (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Key Indicators of the Service Sector in the Republic of Uzbekistan*. 20.01.2026. URL: https://stat.uz/img/news/analitika-12_2025-eng.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).
 15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Iqtisodiy faol aholi soni; Bandlik darajasi; Ishsizlik darajasi*. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_554.pdf; https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1311.pdf; https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1875.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100